

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

1 (4) 2024

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори. сиёсий фанлар номзоди. профессор.

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳақимов Назар Ҳақимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гўлнора Абдукаҳхаровна –
т

Гурдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;
Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEM S TEAM” масъулияти чекланган жамияти.

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i> XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI TAVSIFI (1-qism).....	9-14
<i>Mirzayev Avazbek</i> ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI	15-21
<i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i> ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР	22-28
<i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i> XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA IMPERIYALARI RAQOBATI	29-34
<i>Джалолов Бахром Джамолович</i> СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ	35-39
<i>Махматкулова Нозикой Чориёевна</i> О'ЗБЕКИСТОНДА XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEKANIZATSIYALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR SIYOSATI	40-45
<i>Ochilov Farhod</i> О'ЗБЕКИСТОНДА О'ZINI О'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING АНОЛИНИ ИЖТИМОИЙ НИМОYA QILISHDAGI FAOLIYATI	46-52
<i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОИЙ МУОММОЛАР	53-58
<i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ	59-65
<i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i> XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR	66-71

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i> СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ МОДЕЛИ	72-78
<i>Ro'zmetov Bahodir Shomurotovich</i> TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI	79-90
<i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i> MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING АНАМИYATI	91-99
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i> АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ МОХИЯТИ	100-109

<i>Болтаев Нурали Шираматович</i> АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ	110-118
<i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i> ДАВЛАТНИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ	119-124
<i>Жураева Гульзира</i> АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ	125-130
<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i> BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA NOPARAMETRIK USULLARI	131-136
<i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ISHLAB CHIQRISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH KO'RSATKICHLARI	137-147
<i>Rahimbayev Akmal Azatboevich</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР БЎЙИЧА АНИҚЛАШ	148-157
<i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i> SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY SHARTI	158-170
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН АЛЛОМА	171-175
<i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманноновна</i> ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА АЛИ ДЖИННЫ	176-181
<i>Nasimov Azizbek Azimovich</i> АХВОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТ РИВОЖЛАНИШИДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ МОНИЯТИ	182-186
<i>Norkulov Olim Nasimovich</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSIYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA TA'SIRI	187-191
<i>Хасанов Бобуржон Хакимович</i> ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	192-197
<i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i> YANGI O'ZBEKISTON VA IJTIMOY DAVLATCHILIK	198-204
<i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i> SIVILIZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING IJTIMOY- FALSAFIY AHAMIYATI (Samyuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asari asosida).....	205-214

<i>Shukurov Orif Jumaboyevich</i> JAMIYATDA YOSHLARNING IJTIMOYIY AKTIVLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	215-219
---	---------

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Akhmedov Oybek Saporbayevich</i> THEORETICAL OVERVIEW OF THE DEFINITION “TERM” AND “TERMINOLOGY” IN LINGUISTIC SURVEYS	220-227
<i>Равшанова Гулрухбегим Қахрамон қизи</i> ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ	228-232
<i>Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna</i> AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI	233-237
<i>Uliqova Mavludaxon</i> “QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON BO’LISHI	238-243
<i>Rahmonov Asror ibni Nusrat</i> HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O’RNI	244-252
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI	253-258
<i>Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna</i> INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOYIY-MADANIY FARQLAR	259-265
<i>Vokhidova Tamanno Saidjonovna</i> MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION	266-271
<i>Djurayeva Shahlo G’ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna</i> INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARINING BADIY SEMANTIKASI	272-277

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Uzakova Go’zal Sharipovna</i> O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA “YASHIL QURILISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	278-286
<i>Мурзаев Шухрат Шавкатович</i> СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ	287-293
<i>Qosimov Botirjon Ma’rufjon o’g’li</i> SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL	294-301
<i>Islombek Abdikhakimov</i> QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES	302-309
<i>Ходжаева Ширинхон Олимхон кизи</i> ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ	310-315
<i>Jiyenbayev Bahadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA’MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA XORIJYIY TAJRIBA	316-322
<i>Алишаев Собир Турсунбоевич</i> СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	323-329

Адембаев Аралбай Куралбаевич

АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ
ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОЙДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН
ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ 330-339

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников

ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-
ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ
ПЕРСПЕКТИВЫ 340-346

Xajiyeva Iroda Adambayevna

TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI
TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI 347-351

Ayatov Raximberdi Ibragimovich

XORIJIIY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI
O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 352-357

Saidova Dilobar Ikrambayevna

MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIIY XULQ-ATVORNI
RIVOJLANTIRISH ZARURATI 358-361

Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING
KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI 362-367

Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна

ТИББИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА
ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ 368-375

Janonova Sitora Berdinazarovna

ТА'ЛИМ ВА ТАРБИYA ТАРАҚҚИYOTИДА КОММУНИКАТИV КОМПЕТЕНСИYA
TUSHUNCHASINING O'RNI 376-381

Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи

ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА
ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО
СИФАТИДА 382-387

Bakhadirova Shoxina Nadir kizi

INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA
TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH 388-392

Qurbonova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloevna

OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI 393-397

Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION
METODLARI 398-403

Ro'zmetov Baxodir Shomurotovich
Xorazm viloyati Urganch davlat
universiteti, tayanch doktorant

**TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI
TA'MINLASHDAGI O'RNI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm sohasida xizmatlar mohiyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdagi o'rni haqida fikrlar bayon etilgan bo'lib, turizm xizmatlar bozorini jahondagi va mamlakatimizdagi iqtisodiy tendensiyalari yoritib berilgan. Turizm sohaga ta'sir etuvchi omillari va uni rivojlantirish imkoniyatlari o'rganib chiqilgan hamda tegishli xulosalar, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, turizm sohasi, mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, turistik xizmatlar, iqtisodiy tendensiyalar, ta'sir etuvchi omillar, turizm xizmatlar bozori, turistik salohiyat, rivojlantirish imkoniyatlari.

Ruzmetov Bakhodir
Urganch State University,
Khorezm region, PhD student

**THE ESSENCE OF SERVICES IN TOURISM AND ITS ROLE IN ENSURING SOCIO-ECONOMIC
DEVELOPMENT**

Abstract. This article describes the nature of services in the field of tourism, its role in ensuring socio-economic development, and the economic trends of the market of tourism services in the world and in our country. Factors affecting the tourism sector and opportunities for its development are studied, and relevant conclusions, scientific proposals and practical recommendations are presented.

Keywords: Tourism, tourism industry, country's economy, socio-economic development, tourist services, economic trends, influencing factors, tourism services market, tourist potential, development opportunities.

Рўзметов Баходир Шомуротович
Ургенчский государственный университет,
Хорезмская область, докторант

**СУЩНОСТЬ УСЛУГ В ТУРИЗМЕ И ЕЕ РОЛЬ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНО-
ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ**

Аннотация. В данной статье описывается сущность услуг в сфере туризма, их роль в обеспечении социально-экономического развития, а также экономические тенденции рынка туристических услуг в мире и в нашей стране. Изучены факторы, влияющие на туристическую сферу и возможности ее развития, представлены соответствующие выводы, научные предложения и практические рекомендации.

Ключевые слова: Туризм, сфера туризма, экономика страны, социально-экономическое развитие, туристические услуги, экономические тенденции, факторы влияния, рынок туристических услуг, туристский потенциал, возможности развития.

Kirish. Turizm har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi sohalardan biridir. Turizm sohasidagi xizmatlar, turistlar uchun oson va qulay sayohat tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Bu xizmatlarni ko'rsatuvchi turistik korxonalar ya'ni sayohat agentliklari, mehmonxonalar, restoranlar, transfer xizmatlarini tashkil etuvchilar va ularga xizmat ko'rsatuvchi boshqa xo'jalik tashkilotlari tomonidan tashkillashtiriladi. Turizm sohasidagi xizmatlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Turizm sohasidagi xizmatlar, turizm tashkilotlari va ularning ishlab chiqarish tarmoqlari orqali ko'p miqdorda ish o'rinlari yaratadi, valyuta tushumlarini ta'minlaydi va bu esa iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi.

Global miqyosda sayohat va turizmning yalpi ichki mahsulotga (YaIM) qo'shgan to'g'ridan-to'g'ri hissasi 2022-yilda taxminan 7,7 trillion AQSH dollarini tashkil etdi. Bu global yalpi ichki mahsulotning 7,6 foizini tashkil qiladi[13].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev turizmni yanada rivojlantirish masalalari bag'ishlangan yig'ilishda "Turizm — iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda" deya o'z fikrlarini bildirib o'tdi[14].

Hozirgi innovatsion iqtisodiyot sharoitida aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida yangi ish o'rinlari yaratishga katta ahamiyat beradi. Binobarin, yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati mavjud bo'lgan har qanday sohada undan samarali foydalanish zarur. Ayni paytda turizm dunyodagi eng daromadli biznes tarmoqlari qatorida turadi. Bu bozor iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ko'plab xalqaro chegaralar orqali tez o'sib bormoqda. Sayyohlik biznesi jahon iqtisodiyotidagi o'z mavqeyini kengaytirib, transport, aloqa, savdo, qurilish, qishloq xo'jaligi, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish sohalari bilan hamnafas rivojlanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turizm sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri bo'yicha iqtisodchi olim A.M.Gudratli o'zining ilmiy ishlaridan birida "Turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini ijobiy baholab, turizm sohasi milliy daromadni ko'paytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, turistik xizmatlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha tarmoqlarni rivojlantirish, turistik markazlarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, xalq hunarmandchiligi va madaniyat markazlari faoliyatini faollashtirish, aholi turmush darajasi oshishini ta'minlash, valyuta tushumlarini ko'paytirishga yordam beradi" deb ta'kidlaydi[4, c.4].

Rao R.S. o'z izlanishlarida "turizmni rivojlantirish iqtisodiyot va yalpi ichki mahsulot darajasiga yangi ish o'rinlarini yaratish, tovarlar va xizmatlarga talabni oshirish orqali ta'sir ko'rsatadi. Sayyohlik bilan bog'liq yuqori darajadagi faoliyatga ega bo'lgan hudud mahalliy aholi uchun ko'plab ish joylarini yaratadi" deb aytib o'tgan[9, pp.1-8].

A.V.Strelnikov esa, ushbu tarmoqda bitta yangi ish o'rnini yaratish sanoat tarmog'iga nisbatan 20 barobar arzonroqqa tushishini aniqlagan[10, c.3].

Yu.V. Bogdanovning fikricha, 30 ta turist bevosita bitta yoki bilvosita ikkita yangi ish o'rnini yaratadi[2, c.4].

Vukadinovich P., Damnjanovich A., Z. Jovanovichlar o'z ilmiy ishlarida turizmning nafaqat ijobiy, balki salbiy ijtimoiy-iqtisodiy samaralari ham borligini ta'kidlab, turizmning quyidagi salbiy ta'sirlarini ajratib ko'rsatadi: turizmga iqtisodiy bog'liqlik mahalliy aholi uchun kundalik tovar va xizmatlarning qimmatlashishi, turizm bozorida transmilliy

kompaniyalarning ustunligi, ishga oid sikllarning sezuvchanligi va ishga oid munosabatlarning o'zgarishi, milliy an'analar va qadriyatlarga putur yetishi va boshqalar[12, pp.263-278].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada turizm xizmatlar mohiyati va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bo'yicha mavjud nazariyalar o'rganildi. Turizm xizmatlar bozorini jahondagi va mamlakatimizdagi iqtisodiy tendensiyalari, sohani rivojlantirish omillari va imkoniyatlari tahlil qilindi. Tizimli tahlil qilishda xorijiy va mahalliy manba ma'lumotlaridan keng foydalanildi. Tadqiqot mavzusi doirasida muammoni atroflicha tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida nazariy mushohada, analiz va sintez, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik kuzatuvlar, tizimli tahlil, umumiy ilmiy tadqiqot usullari, ekspert baholari kabi metodologik usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalari. Bugungi kunda turizm jahondagi uchta yetakchi sohalar qatoriga kiritilmoqda. Tez sur'atlarda rivojlanmoqda va uning muhim ijtimoiy hamda iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi quyidagi omilarga ta'siri bilan belgilanadi[6, b.68]:

- mahalliy daromadni o'stiradi;
- yangi ish o'rinlarini yaratadi;
- turistik xizmatlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalarni rivojlantiradi;
- sayyohlik markazlarida ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantiradi;
- xalq hunarmandchilik markazlari faoliyatining rivojlanishini tezlashtiradi;
- mahalliy aholi yashash darajasining o'sishini ta'minlaydi;
- valyuta tushumlari miqdorining o'sishiga yordam beradi

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Turizm to'g'risida"gi Qonunida ayrim moddalarda turistik xizmatlar bilan bog'liq tushunchalarning ta'rifi berilgan. Jumladan, Qonunning 3-moddasida turistik xizmatlar tushunchasi haqida: "turistik xizmatlar — joylashtirish, ovqatlantirish, transport, ekskursiya va maslahat xizmati ko'rsatish bo'yicha xizmatlar, shuningdek turist va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan xizmatlar" – deb ta'riflanadi [1].

Turistik xizmatlar moddiy xususiyat mavjud emas, chunki ular ijtimoiy va madaniy (nomoddiy) bo'lib, ular turistik mahsulot iste'molchilarining jismoniy, axloqiy, intellektual, ma'naviy va boshqa ehtiyojlarni qondirish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchining faoliyati bilan belgilanadi. Turistik xizmatlar insonning barcha sezgi organlari (tegish, hidlash, eshitish, ko'rish, ta'm) tomonidan qabul qilinadi. Ushbu idrok subyektivdir va u sayyohlik agentligidan sayohatni sotib olayotganda iste'molchining kutganlariga to'g'ri kelmasligi mumkin. Turistik xizmatlarni subyektiv, hissiy idrok etish nafaqat iste'molda, balki natijaga obyektiv baho berish qobiliyatida ham iz qoldiradi. Sayyohlik agentliklari ishlab chiqarish faoliyati sifatida namoyon bo'ladigan turizm xizmatlari ishlab chiqarish va iste'molning bir-biridan ajralmasligi bilan tavsiflanadi. Xizmat pudratchi va iste'molchi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri o'zaro ta'sir natijasi bo'lganligi sababli, turistik xizmatlar ko'rsatish (ishlab chiqarish) jarayoni iste'mol bilan parallel ravishda sodir bo'ladi. Turistik tovarlar xaridordan vaqt va makon bo'yicha ajratilgan, iste'molchi ulardan to'g'ridan-to'g'ri turistik xizmatlar ko'rsatish joyida iste'mol qilinmaguncha foydalana olmaydi. Bunday xususiyat turistik xizmatlarga ega bo'lish uchun iste'molchidan yo'lga chiqish, masofani bosib o'tish va manzilga yetib borish zarurligi bilan yanada kuchayadi. Iste'molchi professional yordamga muhtoj bo'lib, asosiy shart turistik xizmatlardan foydalanish — mijozning xizmat ko'rsatish jarayonida shaxsiy ishtiroki hisoblanadi.

U qanday ishtirok etishidan, ijrochi va iste'molchi o'rtasida yaxshi aloqa o'rnatishdan, shaxsiy xususiyatlar ko'rsatilayotgan xizmat sifati ham mijozga bog'liq. Turistik xizmatlarni ko'rsatish imkoniyatiga sotuvchi yoki xaridorning harakatlariga bog'liq bo'lmagan fors-major holatlar: tabiiy ofatlar, xalqaro vaziyatning keskinlashishi, harbiy harakatlar va boshqa tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, turistik xizmat o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Turistlarga xizmat ko'rsatish — bu tavsiflanadigan moddiy va nomoddiy komponentlar majmuasi bo'lib, ularning o'rtasidagi har xil munosabatlarni ifodalovchi murakkab tizimdir.

2. Turistik xizmatlarga talab daromad darajasi va narxlarga nisbatan juda elastik hisoblanib, ko'p jihatdan siyosiy va ijtimoiy sharoitlarga bog'liq.

3. Qoidaga ko'ra, iste'molchi turistik mahsulotni iste'mol qilishdan oldin ko'ra olmaydi va iste'molning o'zi ko'p hollarda bevosita turistik xizmatni ishlab chiqarish joyida amalga oshiriladi.

4. Iste'molchi turistik xizmatning o'zidan va iste'mol joyidan ajratib turuvchi masofani bosib o'tadi.

5. Turistik xizmatlar sifati darajasi makon va vaqt kabi o'zgaruvchilarga bog'liq bo'lib, u talabning tebranishlari bilan tavsiflanadi.

6. Turistik xizmatlar taklifi moslashuvchan emas. Uni to'g'ridan-to'g'ri turistik hududda iste'mol qilish mumkin. Turizm infratuzilmasi obyektlari: joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish joylari, aeroport, vokzal, dam olish maskanlari faqatgina mavsum oxirida xizmat ko'rsatishi yoki boshqa hududga ko'chirilishi mumkin emas. Ular vaqt va makonda o'zgaruvchan talabga moslasha olmaydi.

7. Turistlarga xizmat ko'rsatish ko'plab korxonalarining sa'y-harakatlari bilan yaratiladi, ularning har biri o'ziga xos ish usullari, aniq ehtiyojlari va turli xil tijorat maqsadlariga ega.

8. Yuqori sifatli sayyohlik xizmatiga hatto kichik kamchiliklar mavjud bo'lganda ham erishib bo'lmaydi, chunki turistik xizmat mana shu "kichik narsalar" dan iborat bo'lib, ular orqali umumiy xizmat baholanadi.

9. Turistik xizmatlar sifatini baholash muhim subyektivlik bilan tavsiflanadi ya'ni, iste'molchi turistik mahsulotni baholashga sotib olingan xizmatlar to'plamiga bevosita aloqador bo'lmagan shaxslar (masalan, mahalliy aholi) katta ta'sir ko'rsatadi.

10. Turistlarga ko'rsatilayotgan turistik xizmatlar sifatiga fors-major holatlarning tashqi omillari (tabiiy ofatlar, xalqaro vaziyatning keskinlashishi, harbiy harakatlar turizm siyosati, xalqaro tadbirlar va boshqalar) ta'sir ko'rsatadi.

Turizm statistikasi bo'yicha hujjatlar quyidagi tipik turistik mahsulotlar ro'yxatini taqdim etadi [15]:

- joylashtirish xizmatlari: mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalari xizmatlari;
- umumiy ovqatlanish korxonalar xizmatlari;
- yo'lovchi tashish xizmatlari: shaharlararo temir yo'l transporti, avtomobil transporti, suv transportida tashish; havo transporti, yo'lovchi tashish bilan bog'liq yordamchi xizmatlar, yo'lovchi tashish uskunalari ijaraga olish, yo'lovchi tashish texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;

- turistik agentliklar, turoperatorlar va gidlarning xizmatlari: sayyohlik agentliklarining xizmatlari, turoperatorlarning xizmatlari, turistlarni axborot bilan ta'minlash va gid xizmatlarini ko'rsatish;
- madaniyat sohasidagi xizmatlar: sahna san'ati, muzeylar faoliyati va madaniyat sohasidagi boshqa xizmatlar;
- dam olish xizmatlari va o'yin-kulgi sohasidagi boshqa xizmatlar;
- sport faoliyati va havaskorlar sporti sohasidagi xizmatlar, ko'ngilochar va dam olish sohasidagi boshqa xizmatlar;
- turli xil sayohat xizmatlari: moliyaviy xizmatlar va sug'urta, tovarlar lizingiga oid boshqa xizmatlar;
- boshqa turistik xizmatlar.

Mamlakatda turizmni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar turizmning kelajagini belgilovchi global tendensiyalarni, rivojlanishning hozirgi va potensial holatini belgilovchi mahalliy sharoit va xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Turizmning uzoq muddatli istiqboldagi muvaffaqiyati turizm sektorining barqaror rivojlanish o'lchovlari bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni boshqarish qobiliyatiga bog'liq[11. p-36].

Ekologik o'lchov — atrof-muhit sifati va uning tabiiy resurslari ko'pincha joyning turistik jozibadorligini tashkil qiladi, shuning uchun atrof-muhitga yoki tabiiy resurslarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan har qanday faoliyat uzoq muddatda turizm nuqtai nazaridan jozibadorlikni yomonlashtiradi, bu ko'rinish esa kamroq tashrif buyuruvchilar soniga va turizmdan kamroq daromad olishga olib keladi;


Ijtimoiy-madaniy o'lchov — mintaqaning ijtimoiy va madaniy merosi turizmda muhim rol o'ynaydi, ayniqsa yuqori madaniy yoki badiiy qiymatga ega bo'lgan hududlarda yoki mahalliy an'analar va qadriyatlar muhim rol o'ynaydigan joylarda, bunday joylarda turizm muhim rol o'ynashi mumkin. yangi ish o'rinlarini yaratish, merosni asrab-avaylash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi muhim rol o'ynaydi;

Iqtisodiy o'lchov — turizm barqaror rivojlanish konsepsiyasi tamoyillari bilan mos ravishda amalga oshirilmagan, ijtimoiy va ekologik xarajatlarga hissa qo'shadi, bu esa uzoq muddatli istiqbolda turizmdan keladigan moliyaviy daromaddan ustun bo'lishi mumkin. Agar turizmdan olinadigan daromadlarni hisoblashda ushbu xarajatlar hisobga olinmasa, kelajakdagi prognozlar natijalari tasvirlarni buzishi va noto'g'ri rejalashtirishga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, barqaror turizm turizm sohasiga jalb qilingan barcha ishtirokchilar erishadigan moliyaviy foydani oshirish qobiliyatiga, shu jumladan ijtimoiy, madaniy va ekologik merosni saqlab qolish qobiliyatiga bog'liq. Demak, turizm shakli turli jihatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak[5, pp.523-529].

Turizmni rivojlantirish doirasi global tendensiyalarga, mavjud resurslar va salohiyatga, sayohatchilarning ehtiyojlari va mahalliy aholi manfaatlariga muvofiq turizmni rivojlantirishni ta'minlash uchun mintaqalar tomonidan amal qilishi mumkin bo'lgan kompleks vositadir[2, pp.520-539].

Yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda, turizmga ta'sir qiluvchi omillar va ko'rsatkichlar, global tendensiyalar, sohani o'rganish va rivojlantirish prinsiplari quyidagi rasmda ko'rib chiqishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Turizmni rivojlantirish asoslari

a) Turizm rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan:

- talab omillari — sayyohlar bilan bog'liq bo'lgan omillar: shaxsiy daromad, bo'sh vaqt mavjudligi, mavsumiy talablar, ta'til maqsadlari va ehtiyoji, demografik xususiyatlar va boshqalar;
- taklif omillari – turistik xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan omillar: tabiiy va antropogen resurslar mavjudligi, investitsiya fondlarining mavjudligi, malakali kadrlar bazasi va boshqalar;

- bozor infratuzilmasi va tartibga soluvchi omillar: iqtisodiy, siyosiy, raqobat, infratuzilma, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, mintaqaviy rivojlanish strategiyasi va boshqalar;

b) Turizmni rivojlantirish yo'lidagi qadamlar:

- kelgusida boshqarilishi va imkoniyatlarga aylantirilishi mumkin bo'lgan asosiy masalalarni topish uchun turizm mijozlarining qoniqishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarning joriy holatni tahlil qilish;

- turizmni rivojlantirishni rejalashtirish va asosiy ustuvorliklarini belgilash;

- turizmni rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni tashkil etish va boshqarish;

- monitoring va baholash;

c) Ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va madaniy ta'sirlar: Bu yerda turizm rivojlanishining nafaqat ijobiy, balki salbiy ta'sirini ham hisobga olish kerak.

Turizm mahalliy aholi hayotiga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin[7].

Ijobiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ish o'rinlarini yaralishi;

- daromadni ko'payishi, mahalliy aholini yashash darajasini oshishi ;

- urbanizatsiya jarayonini tezlashishi, shaharcha xizmat, infrastruktura, madaniyat tashkilotlarini rivojlanishi;

- ijtimoiy va madaniy jarayonlarning tezlashishi;

- mahalliy madaniyat o'choqlarning yaralishi, xalq ijodiyoti, an'ana va urf-odatlarini rivojlanishi;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga talabni oshishi;

- mahalliy madaniy yodgorliklarni tiklanishi va muhofazasi;

- tabiiy komplekslarni kengayishi

- mintaqa jozibadorligini oshishi;

- mahalliy madaniy hayotni jonlanishi;

Salbiy xususiyatlari quyidagilar:

- malakasiz mehnat ulushining o'sishi;

- umumjamiyat normasini buzilishi oshishi; (ichkilik, fohishabozlik, bezorilik)

- oila "eroziyasi" (oilaviy ajralishlar, yoshlarni hayotga yengil qarashi);

- mahalliy aholi va turistlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar ;

- mavsumiy ishsizlik;

- yashash narxining oshishi;

- ekologik ifloslanish;

- tabiiy landshaftni yo'qotish;

- madaniy ta'sirlar: mahalliy aholiga yot bo'lgan til, madaniyat va urf-odatlarini kirib kelishi;

- vandalizm va boshqalar.

- d) Global tendensiyalar: XXI asr boshiga kelib butun dunyoda global turizm texnologik taraqqiyot ta'sirida sezilarli darajada o'sdi. O'sish demografik ko'rsatkichlar, atrof-muhit sharoitlari va innovatsiyalar ta'sirida davom etdi. Odamlar arzonroq aviachiptalar, o'z

sayohatlarini rejalashtirish va bron qilish, keyin esa onlaynda o'z tajribalarini baham ko'rish imkoniyatidan foydalandi.

Turizm sanoatidagi global tendensiyalar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin, ammo ba'zi asosiy tendensiyalar odatda uzoq muddatda samarali bo'ladi. Hozirgi davrga kelib turizm sohasidagi ba'zi muhim global tendensiyalar quyidagilar iborat:

- Barqaror turizm: Ekologik javobgarlik va barqarorlik turizm sanoatida muhim masalaga aylandi. Sayohatchilar odatda ekologik toza va barqaror amaliyotlarga e'tibor qaratadigan yo'nalishlarni tanlashadi. Bundan tashqari, turizm obyektlari va kompaniyalari barqaror amaliyotga qaratilgan sa'y-harakatlarini kuchaytirmoqda.

- Texnologik yutuqlar: texnologiyaning turizm sanoatiga ta'siri ortib bormoqda. Sayohat tajribasini boyitish, bron qilishni soddalashtirish va sayyohlarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun virtual reallik, to'ldirilgan reallik, sun'iy intellekt va boshqa texnologiyalar qo'llaniladi.

- Mahalliy madaniyat va urf-odatlar: Sayohatchilar mahalliy madaniyatlarni o'rganishga va haqiqiy tajribalarda ishtirok etishga ko'proq qiziqish bildirmoqda. Shu sababli, turizm sanoati mahalliy turizm tajribasini ta'kidlaydigan va qo'llab-quvvatlovchi yo'nalishda rivojlanmoqda.

- Raqamli marketing va ijtimoiy media ta'siri: Sayohatni rejalashtirish va bron qilish tobora ko'proq ijtimoiy media platformalari va boshqa raqamli kanallar orqali amalga oshirilmogda. Dam oluvchilarga erishish va ularga erishish uchun sayyohlik kompaniyalari raqamli marketing strategiyalarini ishlab chiqmoqda.

- Salomatlik va xavfsizlikka e'tibor qaratib sayohat: COVID-19 pandemiyasi sayohat sanoatida salomatlik va xavfsizlikka ko'proq e'tibor qaratilishiga olib keldi. Sayohatchilar gigiyena standartlari, sog'liqni saqlash kafolatlari va xavfsiz sayohat choralari ga ko'proq e'tibor berishni boshladilar.


- Ushbu tendensiyalar umumiy tendensiyalarni aks ettirsa-da, turizm sanoatida vaqt o'tishi bilan o'zgarishlar yuz berishi va yangi omillar paydo bo'lishi mumkin.

Ammo turizmga COVID-19 pandemiyasi sabab bo'lgan inqiroz qattiq ta'sir ko'rsatdi va bu uning iqtisodiy farovonlik, ish o'rinlari, daromadlar va farovonlik omili sifatidagi ahamiyatini namoyish etdi. Soha tiklana boshlagan bir paytda, Rossiyaning Ukrainadagi urushidan kelib chiqqan iqtisodiy va ijtimoiy zarar tiklanish istiqbollariga yangi zarba berdi. Turizm xizmatlar bozori noaniq istiqbol sharoitida ushbu muammolarni hal qilar ekan, tiklanishni kuchaytirish va turizmni yanada mustahkam, barqaror va inklyuziv kelajak sari yo'lga qo'yish uchun barqaror va o'zgartiruvchi harakatlar zarur.

2022-yilga kelib turizm sanoati asta-sekin tiklanib o'zining pandemiyadan oldingi ko'rsatkichlariga yaqinlasha boshladi. Bu talabning ortishi va sayohat cheklovlarining olib tashlanishi bilan izohlanadi. Tiklanish barcha mamlakatlarda zaif va notekis kechmogda, ammo Rossiyaning Ukrainadagi urushi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy pasayish va geosiyosiy beqarorlikdan yangi noaniqliklar keltirib chiqardi. Pandemiya davrida ko'plab ish o'rinlari va korxonalar uchun muhim hayot yo'nalishi bo'lib qolgan ichki turizm 2023 yilga kelib pandemiyadan oldingi darajaga qaytishi kutilayotgan bo'lsa-da, xalqaro turizmning to'liq tiklanishi 2025 yilgacha yoki undan keyin davom etishi kutilmogda[8, p.15].

Darhaqiqat, turizm sanoati turli omillar, masalan, tabiiy ofatlar, pandemiyalar, terrorizm, iqlim o'zgarishi va hokazolarga nisbatan zaifdir. Shu sababli, tegishli tashkilotlar ularga qarshi kurashish va tiklanish strategiyalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rishlari kerak.

Mamlakatimizda turizm sohasidagi xizmatlar rivojlanishi, turizm sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishi va davlatimizning iqtisodiy rivojlanishini yanada kuchaytirishi katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat-xususiy-sherikchilik munosabatlarini qo'llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim. Shu sababdan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini yanada oshirish maqsadida turizm salohiyatidan foydalanishning kompleks, o'zaro bog'langan mexanizmlarini shakllantirish talab etiladi. (2-rasm).



2-rasm: Turizm sektori ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi

Turizm sohasida hamkorlik deganda turli manfaatdor tomonlar umumiy maqsadlarga erishish va sohadagi imkoniyatlardan unumli foydalanish uchun birlashishi va hamkorlik qilishi tushuniladi. Turizm sohasida hamkorlik turoperatorlar, mehmonxonalar, aviakompaniyalar, turizm tashkilotlari, davlat organlari va mahalliy hokimiyat tuzilmalarini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan bir qator manfaatdor tomonlar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish juda muhim hisoblanadi. Hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, turizm tarmog‘ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ‘ibot qilish, turizm sohasida O‘zbekistonning ijobiy imidjini shakllantirish maqsadida turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida belgilab, turizmni rivojlantirishning kompleks asoslarini yaratish va izchil qo‘llash, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va tarkibiy islohotlar o‘tkazish, turizm sohasini va unga aloqador tarmoqlarni jadal rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, uni rivojlanishning qudratli vositasiga aylantirishi lozim bo‘lgan ushbu sanoatning barqaror o‘sishi, yalpi ichki mahsulot va mahalliy byudjet daromadlarida turizm hissasining ulushini oshirish, ish o‘rinlarini yaratish, aholi turmush darajasi va sifatini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- turizm industriyasi ishtirokchilarining faoliyati uchun qulay muhitni yaratish maqsadida turizm faoliyatiga oid qonunlar va me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda davom etish; turizmni rivojlantirish jarayonida barcha to‘siqlar va xavf-xatarlarni bartaraf etish, vizalar va ro‘yxatga olish bilan bog‘liq tartiblar, pasport va bojxona tartiblarini soddalashtirish, davlat boshqaruvi va sohaga oid normativ hujjatlarni tartibga solish, turizm industriyasida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosatini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, sayohat xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishi rag‘batlantirish, turizm sohasining statistik hisob tizimini takomillashtirish;

- turistlar va ekskursantlarga turistik xizmatlarni ko‘rsatishda, birinchi navbatda, turistik joylashtirish vositalarida, ovqatlanish maskanlarida, mamlakat hududi bo‘ylab harakatlanishda, turizm obyektlariga tashriflarni uyushtirishda ularning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- mamlakat va uning hududlarida mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, an’anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini – ekologik, etnografik, ziyorat qilish, gastronomik, qishloq, sanoat, sport, davolash-sog‘lomlashtirish, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari orasida ya‘ni bolalar, o‘smirlar va yoshlar turizmini, oilaviy turizmni, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish hisobiga turizmning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish, hududlarda yangi sayyohlik yo‘nalishlarini yaratish, ularni pasportlashtirish, sayyohlik yo‘nalishlari va turizm obyektlari bo‘yicha markazlashgan milliy ma‘lumotlar bazalarini yaratish maqsadida ichki, xalqaro va tashqi sayohatlarni har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha milliy, mintaqaviy va mahalliy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- turizm sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, eng avvalo, nufuzli xalqaro tashkilotlar: Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) va uning turizm sohasidagi organi Butunjahon turizm tashkiloti (BTT), xorijiy sayohatlarga yordam beruvchi boshqa muhim xalqaro va milliy tashkilotlar – turizm xizmatlarini ko‘rsatuvchi mintaqaviy va jahon bozorlarining faol ishtirokchilari bilan hamkorlikni kengaytirish, turizm sohasini tartibga soluvchi xalqaro konvensiyalar va bitimlardagi O‘zbekistonning doimiy ishtirokini ta‘minlash,

turizm faoliyatini amalga oshirishda xalqaro va davlatlararo standartlar va me'yorlarni qo'llash;

- Mamlakatning barcha hududlarida zamonaviy jahon andozalariga mos, turistlarning ehtiyojlari va talablariga javob beradigan, turizm industriyasi obyektlarini – joylashtirish vositalarini, umumiy ovqatlanish shaxobchalarini, ekskursiya obyektlarini, transport-logistika tuzilmalarini, axborot markazlarini, madaniyat va sport muassasalarini jadal rivojlantirish maqsadlari uchun mahalliy va xorijiy investorlarni keng jalb etish;

- Mamlakatda xalqaro turizm rivojlantirishda global tendensiyalarni va zamonaviy marketing vositalari qo'llanilishini hisobga olgan holda, sayyohlik tashkilotlari tomonidan raqobatbardosh turizm mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish, ularni ichki va xalqaro turizm bozorlarida ilgari surish bo'yicha strategiyani ishlab chiqish, sayyohlar uchun qulay turizm axborot muhitini yaratish va qo'llab-quvvatlash, keng ko'lamlı reklama va axborot kampaniyalarini o'tkazish, mamlakatning barcha hududlarida turizm axborot markazlari tashkil etish va chet elda turizm vakolatxonalarini ochish, global internet tarmog'ıdan faol foydalanish, doimiy tarzda xorijiy mamlakatlardagi xalqaro turizm yarmarkalarida qatnashish va yurtimizda ham turistik ko'rgazmalarni o'tkazish orqali turizm sohasida O'zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish;

- turizm sohasida xizmat ko'rsatuvchi malakali kadrlarni tayyorlashni tizimli tashkil etish, ayniqsa menejment va marketing yo'nalishida malakali mutaxassislarni sifatli tayyorlash dasturlarini tubdan takomillashtirish, turizm faoliyatida asosiy va qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Turizm mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini yanada oshirish maqsadida turizm salohiyatidan foydalanishning kompleks, o'zaro bog'langan mexanizmlarini shakllantirish talab etiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining 18.07.2019 yildagi O'RQ-549-sonli "Turizm to'g'risida"gi Qonuni
2. Alina Ianioglo & Marko Rissanen (2020) Global trends and tourism development in peripheral areas, *Scandinavian Journal of Hospitality and Tourism*, 20:5, p-520-539, DOI: 10.1080/15022250.2020.1848620
3. Богданов Ю.В. Богданов Ю. В. Развитие индустрии туризма как фактор социально-экономического роста региона: дис. – СПб.: [Балт. междунар. ин-т туризма], 2004. – С. 4.
4. Гудратли А. М. Влияние туризма на национальную экономику // Современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 50-53.
5. Grabara K. Janusz and Paula Bajdor/ Towards to Sustainable Tourism Framework, *Activities and Dimensions / Procedia Economics and Finance* 6 (2013) p.523 – 529. pp-525
6. I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.SH. Safarov, G.R. Tursunova "Turizm asoslari" Darslik. Toshkent: Fan va texnologiya, 2014, 68/332 b.
7. N.E.Ibadullayev, M.X.Xamitov, SA.Abduxamidov, M.I.Daminov "Mintaqaviy turizm" O'quv

- qo'llanma. Samarqand. SamISI.2018 y. 359 b.
8. OECD (2022), *OECD Tourism Trends and Policies 2022*, OECD Publishing, Paris, p-15/361 <https://doi.org/10.1787/a8dd3019-en>
 9. Rao, R. S. (2014). Emerging trends in hospitality and tourism. *International Journal of Research – Granthaalayah*, 1(1), p. 1–8. ISSN- 2350-0530.
 10. Стрельников А. В. Организационно-экономический механизм обеспечения конкурентоспособности образовательных услуг вузов, занимающихся подготовкой кадров для сервиса и туризма //М.: ГБОУ ВПО «Тверской государственнй университет. – 2012. – С. 3.
 11. Wearing, S., Neil, J. (Second Edition 2009). *Ecotourism: impacts, potentials and possibilities?* (Oxford: Elsevier Ltd). p-36/283
 12. Vukadinović P., Damjanović A., Jovanović Z. Position of tourism in global economy and its impact on GDP, employment and investments //Vojno delo. – 2017. – Т. 69. – №. 4. – С. 263-278.
 13. <https://www.statista.com/topics/962/global-tourism/#topicOverview>
 14. <https://uza.uz/uz/posts/turizmni-yanada-rivozhlantirish-masalalari-mu-okama-ilindi-03-10-2017>
 15. <https://skinfoodrussia.ru/uz/calculations/harakteristika-osnovnyh-i-soputstvuyushchih-uslug-v-turizme.html>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).